| Основные научные подходы различных учёных об организации самостоятельной работы студентов .....                                                                                        | 768 |
| <i>Чернова Татьяна Алексеевна</i>                                                                                                                                                      |     |
| Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi professor-o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni .....                                 | 772 |
| <i>Fazlidjanova Nilufar Xikmatdjanovna</i>                                                                                                                                             |     |
| Ta'lim muassasalarida jismoniy madaniyat ta'limi samaradorligiga erishishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish .....                                                      | 775 |
| <i>Xolikov Akmal Tajidinovich</i>                                                                                                                                                      |     |
| Oliy ta'limda korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish.....                                                                                                                   | 778 |
| <i>Axmedova Dilmora Kobiljonovna</i>                                                                                                                                                   |     |
| Психологическая устойчивость к стрессу: опыт и открытия в Узбекистане .....                                                                                                            | 781 |
| <i>Туракулова Дурдона Боходировна</i>                                                                                                                                                  |     |
| Virtual ta'lim sharoitida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda samaradorlikni oshirish .....                                                | 784 |
| <i>Tajibayeva Xurshida Djumamuratovna, Pirmanov Mansur Qadiryevich</i>                                                                                                                 |     |
| Развитие иноязычной межкультурной компетенции студентов в системе профессионально ориентированного языкового образования: роль паремий в формировании межкультурной коммуникации ..... | 788 |
| <i>Амануллаева Камола Муминовна</i>                                                                                                                                                    |     |
| Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining nutqini o'stirishda innovatsion metodikalarni qo'llash tendensiyasi.....                                                         | 794 |
| <i>Erhanova Nasiba Absayitovna</i>                                                                                                                                                     |     |

|                                                                                                                                                                     |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Akademik ijro mahoratini rivojlantirishda xavaskor xor rahbarlar uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlar .....                                                       | 797 |
| <i>Yuldosheva Sadoqat Iloxmonovna</i>                                                                                                                               |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq rivojlanishida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning me'yoriy-huquqiy asoslari .....                                    | 801 |
| <i>Djamolova Noila Zayniddinovna</i>                                                                                                                                |     |
| Ta'lim va tarbiya jarayonida ulug' mutafakkirlarning odob va axloqga oid ilmiy merosidan foydalanishning o'ziga xos jihatlari .....                                 | 807 |
| <i>Ergasheva Dilnoza Mamasharifovna</i>                                                                                                                             |     |
| Tayyorlov guruh bolalarini kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari .....                                                             | 810 |
| <i>G'afforova Hurriyat Yangiboyevna</i>                                                                                                                             |     |
| Bo'lg'usi o'qituvchilarni media ta'limdan foydalanishga o'rgatish .....                                                                                             | 814 |
| <i>G'aniyeva Sayyora Saidmurod qizi</i>                                                                                                                             |     |
| Bo'lajak pedagog kadrlarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari .....                                                                    | 817 |
| <i>Jalolova Feruza Mirkamol qizi</i>                                                                                                                                |     |
| Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar ijodiy tafakkurini rivojlantirish muammolari va yechimlari .....                                                                | 822 |
| <i>Jumayev Xushboq Soatmumin o'g'li</i>                                                                                                                             |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarda kasb motivlari barqarorligiga guruhii jipslikning ta'siri .....                                                                      | 827 |
| <i>Jumayeva Malika Aliyevna</i>                                                                                                                                     |     |
| Jismoniy tarbiya darslari jarayonida maktab yoshidagi bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish .....                                                         | 831 |
| <i>Kamardinov Baxtiyor Kamardinovich, Azimqulova Shaxlo Baxtiyor qizi</i>                                                                                           |     |
| Maktab va oila hamkorligida boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini she'r yodlash qobiliyatini shakllantirish .....                                                      | 837 |
| <i>Karimova Shoxsanam Islomovna</i>                                                                                                                                 |     |
| Turkistondagi jadidchilik harakatining o'ziga xosligi va maktablardagi ta'lim tizimi .....                                                                          | 840 |
| <i>Karimova Zarrina</i>                                                                                                                                             |     |
| Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshqaruvida ijobiy ijtimoiy munosabatlar muhitini shakllantirishdagi tashqi ta'sirlar .....                                         | 843 |
| <i>Maryam Raximova</i>                                                                                                                                              |     |
| Tarbiya ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida: an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy pedagogik yondashuvlar uyg'unligi .....                                                | 848 |
| <i>Muhammadiyeva Feruza To'raikulovna</i>                                                                                                                           |     |
| From Access to Success: Advancing Inclusive Education in Universities .....                                                                                         | 852 |
| <i>Nutfiyeva Dildora</i>                                                                                                                                            |     |
| Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini kasbiy tayyorgarligining pedagogik mexanizmlari .....                                                                  | 856 |
| <i>O'tasheva Lola Shoto'rayevna</i>                                                                                                                                 |     |
| Kognitiv yondashuv asosida ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida ingliz tilini tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligini o'rganish .....          | 859 |
| <i>Qudratova Sultonposhsha Otabek qizi</i>                                                                                                                          |     |
| Klinik amaliyotda tibbiyot talabalarining stressni boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishning innovatsion metodlari .....                                         | 864 |
| <i>Sobirov Qobuljon G'ofirjon o'g'li</i>                                                                                                                            |     |
| Ingliz tilini ikkinchi xorijiy til sifatida o'qitishda leksik derivatsiyalarning ahamiyati .....                                                                    | 868 |
| <i>Abdusattarov Mavlon Sherali o'g'li</i>                                                                                                                           |     |
| Tasavvuf adabiyotining paydo bo'lish omillari .....                                                                                                                 | 872 |
| <i>Ahmadova Shohsanam Sodiq qizi</i>                                                                                                                                |     |
| Ichki ishlar akademiyasi kursantlarining favqulodda vaziyatlarda qaror qabul qilish jarayonini takomillashtirishning nazariy metodologik asoslari .....             | 875 |
| <i>Kadirova Sayyora Madaminovna</i>                                                                                                                                 |     |
| Maktab fizika kursini o'qitishda ekologik tarbiyani shakllantirishning pedagogik asoslari .....                                                                     | 878 |
| <i>Karimov Abdurahmonjon Ma'rufjon o'g'li</i>                                                                                                                       |     |
| Til o'rgatishda zamonaviy usullardan foydalanishning samaradorligi va joriy etish strategiyalari .....                                                              | 882 |
| <i>Muxammadjonova Nafisa Rustam qizi</i>                                                                                                                            |     |
| O'quvchilarning fizika faniga oid umumiy kompetensiyalarini shakllantirishda elektron va mobil ta'lim platformalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari ..... | 885 |
| <i>Najmiddinova Murat Kamolovich</i>                                                                                                                                |     |
| Sun'iy intellekt asosida talabalarining falsafiy tafakkurini rivojlantirishning metodologik asoslari .....                                                          | 890 |
| <i>Nodirbekov Furqatbek Umarjon o'g'li</i>                                                                                                                          |     |





|                                                                                                                   |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Jadidlarning milliy ta'lim paradigmasi asosida OTM talabalarida milliy identlikni (o'zlik) rivojlantirish.....    | 894 |
| <i>Ortiqboyev Soxibjon Inomjon o'g'li</i>                                                                         |     |
| Shifokor shaxsini tarbiyalashda empatiya va axloqiy qadriyatlarning o'rni .....                                   | 897 |
| <i>Tajiboyeva Odinaxon Rustamjon qizi</i>                                                                         |     |
| Features of Flipped Learning to Improve Speaking Proficiency .....                                                | 901 |
| <i>Tojiyeva Matluba Mahmud kizi</i>                                                                               |     |
| Socio-Cultural Approach to Teaching English to Students of Economic Specialties .....                             | 904 |
| <i>Xamdamova Nilufar Esanovna</i>                                                                                 |     |
| Pedagogik mahorat .....                                                                                           | 908 |
| <i>Zakirova Difuza Ergashboyevna</i>                                                                              |     |
| Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy shaxsiy sifatlarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari .....            | 912 |
| <i>Xabilova Sitara Tursunmurod qizi, Payg'amova Husnida</i>                                                       |     |
| Korpus asoslangan til pedagogikasini yuqori kurs ingliz tili ta'limiga joriy etishning nazariy jihatlari.....     | 915 |
| <i>Toshpulatova Mexriniso Kilichevna</i>                                                                          |     |
| Bo'lajak muhandislarni kasbiy rivojlantirishni pedagogik muammo sifatida o'rganish .....                          | 919 |
| <i>Axmedov Juraboy Raxmonberdiyevich</i>                                                                          |     |
| Talabalarning bilim o'zlashtirish darajasi va faolligini oshirishda differensial yondashuvning ahamiyati .....    | 925 |
| <i>Sultonova Farangiz Alisherovna</i>                                                                             |     |
| Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning yozuv malakasini oshirish yo'llari .....                    | 929 |
| <i>Boltayeva Barno Isakulovna</i>                                                                                 |     |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni milliy ruhda tarbiyalash metodikasini rivojlantirish..... | 932 |
| <i>Qosimova Aziza Umarali qizi</i>                                                                                |     |



## TARBIYA IJTIMOIIY-MADANIY HODISA SIFATIDA: AN'ANAVIY QADRIYATLAR VA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR UYG'UNLIGI

Muhammadiyeva Feruza To'raikulovna

Termiz davlat pedagogika instituti,  
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti,  
Maktabgacha ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarbiyaning faoliyat sifatida ijtimoiy hodisa ekanligi ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Adib A. Avloniy qarashlari asosida tarbiyaning insoniyat hayotidagi o'rni yoritilgan hamda pedagogik faoliyat tarixning barcha davrlarida mavjud bo'lganligi asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** tarbiya, A. Avloniy, insoniyat, tarix, barkamol shaxs, ta'lim, ijtimoiy hodisa.

**Abstract:** This article provides a scientific analysis of education as a social phenomenon. Based on the views of the writer A. Avloni, the role of upbringing in human life is highlighted, and it is substantiated that pedagogical activity has existed in all periods of human history.

**Key words:** upbringing, A. Avloni, humanity, history, comprehensively developed personality, education, social phenomenon.

**Аннотация:** В данной статье научно проанализировано воспитание как социальное явление. На основе трудов писателя А. Авлони раскрыта роль воспитания в жизни человечества, а также обосновано, что педагогическая деятельность существовала на всех этапах человеческой истории.

**Ключевые слова:** воспитание, А. Авлони, человечество, история, всесторонне развитая личность, образование, социальное явление.

### KIRISH

Mutafakkir Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek: *"Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot; yo najot, yo halokat; yo saodat, yo falokat masalasidir"*. Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, hamma davrlarda pedagogik faoliyat ham mavjud bo'lgan. Insonning dunyoga kelishi faqat tug'ilishidan iborat tabiiy-biologik hodisa emas, balki tug'ilgandan keyin o'z zamonasining taraqqiyoti darajasiga ko'tarilishi, mavjud ijtimoiy-tarixiy tajribani egallashi, jamiyatda o'z o'rnini belgilab olishi, tarixiy jarayonning faol ishtirokchisiga aylanishi, ya'ni tarbiya olishi kerak. Bu jarayonda katta avlod o'zining yashash, kurash va mehnat tajribasini, bilim va malakalarini kichik avlodlarga bera boshlaydi, ya'ni yangi tug'ilgan odam bolasining rivojlanishi, shakllanishi va voyaga etishi jarayoniga rahbarlik qilingan, boshqarilgan. Bu tarbiya deb atalmish ijtimoiy hodisa orqali amalga oshirilgan. Jamiyat rivojlangani sari yetuk, barkamol shaxslarni etishtirish ehtiyoji ham ortib borgan, o'zgarib, yangilanib, jamiyatga xizmat qilgan.

Insoniyat jamiyatning turli bosqichlarida ta'lim-tarbiya tashkilotlarini yaratish, yosh avlodlarni o'qitish va tarbiyalash sohasidagi tajribalarni nazariy jihatdan anglash, umumlashtirish va hayotga tadbiiq qilish jarayonida pedagogika fani paydo bo'la boshladi. Pedagogika ta'lim-tarbiyaning maqsadi va vazifalari, davlat ta'lim standartlari, ta'lim va tarbiyaning usullari, tashkil etish shakllari, umuman, uning qonuniyatlari haqida bilim va ma'lumot beradigan fanga aylandi. "Pedagogika" atamasi ham qadimiy bo'lib, "bola yetaklovchi" degan ma'noni bildiruvchi yunoncha "paydogogos" so'zidan kelib chiqqan. Tarixiy manbalarning ko'rsatishicha, qadimgi Yunonistonda o'z xo'jayini (quldor)ning bolalarini sayr qildirgan, ehtiyot qilgan tarbiyachini, ya'ni qullarni "pedagog" (bola yetaklovchi) deb atashgan. Keyinchalik esa maxsus o'qitilgan va pedagoglikni o'ziga kasb qilib olgan kishilarni pedagog deb atay boshlashgan.

Inson yaratilishi, paydo bo'lishi zahotiyoq ilm va tarbiyaviy sifatlar uning yashashi, hayot kechirishi uchun eng zarur shart va vositalar ekanligini anglab borgan. Shuning uchun insoniyat jamiyatning ilk ko'rinishlaridanoq tarbiya bilan shug'ullanuvchi mutaxassislariga ehtiyoj tug'ildi, desak biz tarbiyaning faqat bir tomonini,



ya'ni boshqalarni xususiyashtirib qo'ygan bo'lamiz. Agar yoshlarni tarbiyalash desak, tarbiya tushunchasiga juda tor qaralgan bo'ladi. Chunki tarbiya, eng avvalo, har bir insonning o'ziga qaratilgandir. Har bir kishi doimo aqliy, tarbiyaviy va jismonan takomillashib, shakllanib boradi. Ayrim kishilar bu fikrga qo'shilmasliklari mumkin. Bunda jamiyatdagi o'rta va katta avlod tarbiyasida kamchiliklar, etishmovchiliklar bor ekan, degan xulosa chiqarilmaslik kerak.

Negaki, olamning moddiy-ma'naviy tuzilishi, qurilishi, uning rivoji, insonning moddiy-ma'naviy yashash sharoiti va imkoniyatlari, uning aqliy, axloqiy, jismoniy holati bilan uzviy bog'liq. Shuning uchun tabiatning inson yashashi, mavjudligi, baxtiyorligini ta'minlash imkoniyatlari uning aqliy-axloqiy, jismoniy rivoji va o'sishiga to'g'ri-dan-to'g'ri bog'liqdir. Tabiatdagi va jamiyatdagi muammolar insoniyatni ma'naviy-aqliy rivojlanishga yo'naltirib, unga o'zining yangi xazinalarini ochib beraveradi.

Yuqorida sanab o'tilgan ikki sifat komil inson sifatining asosini tashkil etadi. Komil inson sifatlarini tarbiya sohasidagi ilmlarni xulosalab mujassamlashtirsak, ular asosan uchta:

1. Ezgu niyat, ezgu fikr;
2. Ezgu so'z, xushmuomalalik;
3. Ezgu ish, ezgu faoliyat.

Mana shu yuqoridagi uch sifat o'qitish va ta'lim-tarbiyaning bosh maqsadini tashkil etadi. Bu bosh maqsad insonlarda, yoshlarda, mutaxassislarda komillik sifatlarini takomillashtirish, yoshlarni zamonaviy axloqiy-amaliy bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, mutaxassislarda har bir sohaga mos ilmiy bilim va ko'nikmalar hosil qilishdan iboratdir. Bu esa pedagogika fanining zamonaviy ilmiy asoslari kengayganligini ko'rsatadi.

Zamonaviy ta'limda pedagogika fanining predmeti – o'qitish va ta'lim-tarbiyaning zamonaviy qonuniyatlari, mazmuni, usullari, vositalari bilan kishilarni, yoshlarni va mutaxassislarni qurollantiruvchi fan bo'lib, uning metodologik asoslari, maqsad va vazifalari dunyoning moddiy-ma'naviy rivoji, shaxs kamoloti uyg'unligi qonuniyatlari hamda davlatning zamonaviy siyosatidan kelib chiqadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tarbiya ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida jamiyatning ma'naviy-axloqiy asoslarini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Turakulovna va Qizi o'z tadqiqotlarida tarbiyachi kompetensiyasining bolalar faoliyatini tashkil etishdagi ahamiyatini ta'kidlab, vizual faoliyatlar orqali bolalarning ijtimoiy va madaniy rivojlanishini yoritadilar. Cho'tbayeva esa bolalar adabiyoti orqali nafosat tarbiyasining shakllanishini asoslab, milliy qadriyatlarining yosh avlod ma'naviyatini rivojlantirishdagi o'rniga urg'u beradi. Ushbu qarashlar tarbiyaning ijtimoiy va madaniy jihatlarini uyg'un holda o'rganishga imkon beradi.

Muhammadiyeva o'z ilmiy ishlanmalarida maktabgacha ta'limda bolalarning ijtimoiylashuvi, xotirasini kuchaytirish usullari hamda milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash yo'llarini keng yoritgan. Uning tadqiqotlarida tarbiyaviy faoliyat shaxsning ijtimoiy faolligi, ijodkorligi va madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, u zamonaviy pedagogik metodlar, jumladan konstruktivizm va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarning amaliyotdagi natijadorligini asoslab beradi.

Choriyeva va hamkorlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ta'lim tizimida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, milliy o'quv dasturlarining didaktik imkoniyatlari va ta'lim samaradorligini oshirish muammolari tahlil qilingan. Ularning fikricha, an'anaviy qadriyatlar bilan zamonaviy pedagogik yondashuvlarni uyg'unlashtirish nafaqat shaxsning intellektual salohiyatini, balki uning ma'naviy-axloqiy kamolotini ham ta'minlaydi. Bu ilmiy qarashlar tarbiya jarayonida milliy va zamonaviy yondashuvlarning birgalikda qo'llanilishi samaradorligini tasdiqlaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tarbiya – ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida metodologik yondashuv. Tarbiya insonni shakllantirish va uni jamiyatga moslashtirishda muhim rol o'ynaydi. Tarbiya jarayoni ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat tomonidan avlod-dan-avlodga o'tkaziladigan qadriyatlar, norma va urf-odatlarini uzatadi, madaniy hodisa sifatida esa madaniyatni shakllantiruvchi, uni saqlab qoluvchi va rivojlantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Metodologik asoslar falsafiy yondashuvda tarbiya shaxs va jamiyat o'rtasidagi dialektik aloqadorlikda o'rganilib, inson faol ijtimoiy mavjudot sifatida qaraladi.

Madaniyatshunoslik yondashuvi tarbiyani madaniyatning tarkibiy qismi sifatida ko'radi. Sotsiologik yondashuv tarbiyani ijtimoiy institut sifatida, ijtimoiy rollar va munosabatlar kontekstida o'rganadi. An'anaviy qadriyatlar tarbiyaning tarixiy-metodologik asosi bo'lib, ular xalqning asrlar davomida shakllangan axloqiy, ma'naviy, diniy va estetik qarashlari hamda tajribasidan iboratdir. Metodologik yondashuvlar tarixiy yondashuvda

tarbiyaning tarixiy rivojlanish jarayonida qanday shakllangani va qadriyatlarning qanday uzatilganini o'rganadi, milliylik tamoyiliga ko'ra esa tarbiya milliy qadriyatlarga tayangan holda olib borilishi kerak. Misollar sifatida ota-onaga hurmat, keksalarni e'zozlash, mehmondo'stlik, vatanparvarlik, halollik va kamtarlikni ko'rsatish mumkin. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar innovatsion-metodologik asos sifatida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni, ya'ni har bir o'quvchining individual xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olishni, konstruktivizm o'quvchining bilimni o'z tajribasi asosida mustaqil shakllantirishini, kognitiv yondashuvda esa aqliy jarayonlarni rivojlantirish, tanqidiy va ijodiy fikrlashga yo'naltirishni taqozo etadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tarbiya media madaniyati va raqamli savodxonlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Uyg'unlik tamoyili metodologik asos sifatida an'anaviy qadriyatlar bilan zamonaviy yondashuvlarning uyg'unligi qarama-qarshi emas, balki bir-birini to'ldiruvchi jarayon sifatida qaraladi. Metodologik tamoyillar merosiyning davomiyligi (transsendental yondashuv) orqali o'tmish qadriyatlarini zamonga mos holatda saqlab qolishni, moslashuvchanlik orqali tarbiya tizimining doimiy o'zgaruvchan jamiyatga moslashuvchan bo'lishini, uzluksizlik va uzviylik orqali esa tarbiyaning bolalikdan boshlab umr bo'yi davom etishini belgilaydi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tarbiya – bu inson shaxsining shakllanishi va rivojlanish jarayoni bo'lib, u jamiyatning tarixiy, ijtimoiy, madaniy va axloqiy qadriyatlari bilan chambarchas bog'liq. Tarbiya ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida har bir davrda o'ziga xos shakl va mazmunga ega bo'lgan. An'anaviy tarbiyaviy qadriyatlar, ya'ni kattaga hurmat, halollik, mehnatsevarlik, ota-onaga sadoqat, vatanparvarlik va boshqalar uzoq yillar davomida millatimizning ma'naviy tayanchi bo'lib xizmat qilgan. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar esa bolalar va yoshlarni mustaqil fikrlashga, kreativlikka, ijtimoiy faollikka va hayotiy kompetensiyalarni egallashga yo'naltiradi. Bugungi kunda konstruktivizm, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, inkluziv ta'lim, interfaol metodlar va raqamli texnologiyalardan foydalanish kabi yondashuvlar ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan qarganda, tarbiya sohasida an'anaviy qadriyatlar bilan zamonaviy yondashuvlarni uyg'unlashtirish dolzarb masala hisoblanadi, chunki faqat an'anaviy qadriyatlarga tayanish o'quvchi yoki talabaning zamonaviy jamiyatda raqobatbardosh bo'lishiga yetarli emas, faqat zamonaviy metodlarga suyanish esa shaxsni o'z milliy ildizlaridan uzib qo'yishi mumkin. Shu sababli tarbiya jarayonida o'tmishdan kelayotgan ma'naviy qadriyatlar zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirilishi kerak. Tarbiya ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida jamiyatning madaniy merosini saqlab qolish va uni keyingi avlodga yetkazishda muhim vosita hisoblanadi. An'anaviy qadriyatlar millatning ruhiy tayanchi bo'lsa, zamonaviy pedagogik yondashuvlar shaxsning intellektual va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlovchi mexanizmdir. Ularning uyg'unligi orqali shaxsda sog'lom dunyoqarash, kuchli ichki motivatsiya, ijtimoiy faollik va milliy g'urur shakllanadi, bu esa o'z navbatida barkamol avlodni tarbiyalashning eng samarali yo'li hisoblanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tarbiya – bu nafaqat shaxsning kamol topish jarayoni, balki jamiyatning ma'naviy-axloqiy asoslarini mustahkamlovchi ijtimoiy-madaniy hodisadir. U asrlar davomida xalqning urf-odatlarini, an'anaviy qadriyatlarini, e'tiqodlari va hayot tarzi bilan shakllangan. Shu bilan birga, zamonaviy davrda ta'lim-tarbiya tizimida innovatsion va ilmiy yondashuvlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. An'anaviy qadriyatlar – bu xalqning tarixiy tajribasiga asoslangan axloqiy-me'yoriy tizim bo'lib, tarbiyada ota-ona hurmati, kattalarga hurmat, halollik, mehnatsevarlik va vatanparvarlik kabi fazilatlarini shakllantirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar esa bolaning shaxsiy ehtiyojlari, qobiliyatlari, erkin fikrlashi, kreativligi va tanqidiy tafakkurini rivojlantirishni nazarda tutadi. Bugungi kunda konstruktivizm, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va STEAM yondashuvi kabi uslublar pedagogik jarayonning ajralmas qismiga aylanmoqda. Shunday ekan, tarbiya jarayonida an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy pedagogik yondashuvlarning uyg'unligi o'ta muhimdir. An'anaviylik insonning ichki dunyosini boyitib, ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirsa, zamonaviy metodlar esa shaxsning erkin, ongli va ijodkor bo'lib yetishishiga yo'l ochadi. Bu ikki yondashuvning uyg'unligi tarbiyada mukammal natijalarga erishish, sog'lom jamiyatni barpo etish va har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim o'rin tutadi. Shu sababli, tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarga sodiqlikni saqlagan holda, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni maqsadli va puxta o'ylangan tarzda joriy etish bugungi ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri bo'lishi lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Turakulovna M. F., Qizi M. M. M. Competence of the educator in the organization of visual activities // International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. – 2021. – T. 1. – №. 2. – S. 100-103.
2. Muhammadiyeva F. T. Technology familiarization of preschoolers with various materials through cognitive research activities // European Research. – T. 1. – S. 75.



3. Turakulovna M. F. Maktabgacha ta'limda texnologiya ta'limi: bolalarga artefaktlardan foydalanish va yaratish imkoniyatlarini ta'minlash / Muhammadiyeva Feruza Turakulovna, Termiz davlat pedagogika instituti, Maktabgacha ta'lim nazariyasi kafedrası o'qituvchisi // Образование и инновационные исследования. Xalqaro ilmiy-metodik jurnal. – 2023. – №. 2. – S. 180-182.
4. Cho'tbayeva Aziza. Bolalar adabiyoti nafasat tarbiyasining asosiy vositasi sifatida / Cho'tbayeva Aziza, Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi, Termiz davlat universiteti Pedagogika instituti // Научно-практическая конференция. – 2022. – S. 1122-1124.
5. Muhammadiyeva F. The role of pedagogical workers of the preschool educational organization in social activities with children // International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research. – 2023. – T. 3. – №. 4. – S. 94-96.
6. Muhammadiyeva F., Muyassar E. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning xotirasini kuchaytirish usullari // Journal of New Century Innovations. – 2023. – T. 28. – №. 5. – S. 54-59.
7. Muhammadiyeva F. Maktabga tayyorlov guruhları tarbiyalanuvchilarini milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash yo'llari // Interpretation and Researches. – 2023. – T. 2. – №. 1.
8. Muhammadiyeva F. The role of educators of the preschool educational organization in social activities with children // International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2022. – T. 2. – №. 10. – S. 225-227.
9. Muhammadiyeva F. As a factor of education-socialization // Web of Scientist: Международный научный исследовательский журнал. – 2023. – T. 4. – №. 4. – S. 427-442. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/M9KQ>
10. Muxabbat Berdieva, Feruza Muhammadiyeva, Malika Jumaeva, Lola O'tasheva. Beneficial effect of walnuts on brain activity // BIO Web Conferences. – 2024. – S. 1-9.
11. Muhammadiyeva Feruza To'raqulovna. Fundamentals of the formation of the competence of social development of educators of the preschool educational organization // Экономика и социум. – 2024.
12. Чориева С. Ч. и др. Игра как ведущая деятельность ребенка дошкольного возраста // Gospodarka i Innowacje. – 2024. – T. 48. – S. 138-140.
13. Чориева С. Ч. Умение учителя использовать современные образовательные технологии при подготовке учащихся к педагогической деятельности на основе образовательных ценностей // Экономика и социум. – 2024. – №. 10-2 (125). – S. 998-1001.
14. Choriyeva S. C. Talabalarni ta'limiy qadriyatlar asosida pedagogik faoliyatga tayyorlashni rivojlantirish tizimi // Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 4 (Special). – S. 1177-1181.
15. Choriyeva S. Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim samaradorligini oshirishning muammo va yechimlari // Физико-технологическое образование. – 2022. – №. 4.
16. Choriyeva S. Didactic opportunities of the national curriculum for mother tongue and reading literacy in primary schools // Conferencea. – 2022. – S. 527-529.



- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №9**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.